

MARKAZIY OSIYO KO'CHMANCHI-CHORVADOR XALQLARI MADANIYATIDA
MITRA XUDOSINING O'RNI

J.Z. Abdimurodov

Perfect-University

Gumanitar fanlar kafedrası o'qituvchisi.

Tel.: +99888 038 42 42 e-mail: abdumurodov.j@perfectuniversity.uz

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18288073>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Markaziy Osiyo ko'chmanchi-chorvador xalqlarining qadimgi diniy e'tiqodlari tizimida Mitra xudosining tutgan o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Mitra kultining kelib chiqishi, uning quyosh, adolat, shartnoma va harbiy himoya bilan bog'liq jihatlari hamda ko'chmanchi jamiyatlarning ijtimoiy va madaniy hayotidagi aks etishi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Mitra, Avesto, Miura, Quyosh alqovi, Mehr, Turon zamini, bitim xudosi, massaget, chorvador, ko'chmanchi.

Аннотация. В данной статье анализируется роль бога Митры в древней религиозной системе верований кочевых скотоводческих народов Центральной Азии.

Исследование освещает происхождение культа Митры, его аспекты, связанные с солнцем, справедливостью, договорами и военной обороной, а также его отражение в социальной и культурной жизни кочевых обществ.

Ключевые слова: Митра, Авеста, Миура, Рука Солнца, Мехр, Земля Турана, бог согласия, Массамет, пастух, кочевник.

Abstract. This article analyzes the role of the god Mithra in the ancient religious belief system of the nomadic-pastoral peoples of Central Asia. The study highlights the origins of the Mithra cult, its aspects related to the sun, justice, contracts, and military defense, and its reflection in the social and cultural life of nomadic societies.

Keywords: Mithra, Avesta, Miura, Sun's Arm, Mehr, Land of Turan, god of agreement, Massaget, herdsman, nomad.

Mitra nomi eng qadimiy yozma manbalardan bo'lgan – Avesto va Rigvedada ko'p uchraydi. Bu nomning qadimiy diniy va madaniy kontekstda tilga olinishi, Mitra kultining keng hududda, xususan, Markaziy Osiyo mintaqasida ham muhim o'rin tutganini ko'rsatadi.

Ayniqsa, Avesto manbasida aks etgan diniy-ma'naviy qarashlar orqali Markaziy Osiyoda ko'chmanchi-chorvador xalqlarining tafakkuri va madaniyati haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Avestoda tilga olingan mifologik qatlamlar, tarixiy-geografik manzaralar asosan Baqtriya, Marg'iyona, Sug'diyona va Xorazm kabi qadimiy Turon hududlariga taalluqlidir.

Bu esa mazkur hududlarda qadimda shakllangan diniy tasavvurlar va e'tiqod tizimlari, jumladan, Mitra kultining chuqur ildiz otganidan dalolat beradi [2: 275-276].

M.Ishoqov Yasht va Videvdatning o'zbek tiliga tarjima qilingandan so'ng, Yevropalik olimlari tomonidan shakllangan 21 ta naskdan iborat "Avesto" ning tarkibiy tuzilishida (stratigrafiyasi) bir qator mayda kamchiliklar ko'zga tashlandi. Jumladan, Yashtlarda ikkita alohida alqov bevosita quyosh xudosiiga bag'ishlangan. Ulardan biri Xurshed Yasht (Quyosh alqovi), ikkinchisi Mehr Yasht (Mitra alqovi) hisoblanadi [1:47]. Aslida, zardushtiylik dinida bosh xudo - Axuramazda bo'lib, Avestoning keying davrlariga mansub qismlarida Mitraga ham

Axuramazdaga xos sifatlar nisbat berila boshlanganini ko'rish mumkin. Bunda Mitra va Axuramazda bilan bir xil ilohiy qudratning ikki yuzasi sifatida, ya'ni egizak xudolar sifatida tasvirlangan. Avestoda Mitra nomi "Miura" ko'rinishida uchrab, u shartnoma, kelishuv va vadaga sadoqat goyalari bilan bog'langan afsonaviy shaxs, shu bilan birga quyosh xudosi sifatida ham madh etilgan [6].

Aynan shu jihati tufayli Mitra "bitim xudosi" sifatida tanilgan. U insonlar o'rtasidagi kelishuvlar, shartnomalar va ahdlarning samoviy kafolatchisi hisoblangan. Huquqiy-amaliy sohada ham bitimlar aynan Mitra nomidan tuzilgan deb qaralgan va ularning buzilishi ilohiy jazoga sabab bo'lishi mumkinligi haqida e'tiqod bo'lgan. Shunday qilib, Mitraning diniy vazifasi faqat kosmik tartibni emas, balki ijtimoiy adolat va axloqiy intizomni ta'minlashga qaratilgan bo'lgan [4: 63].

Mitra obrazi ko'plab qadimiy e'tiqod tizimlarida – xususan, hind-eroniy diniy an'analarida – quyosh, nur, shartnoma va adolat timsoli sifatida qaralgan. Rigvedada Mitra (do'st) va Varuna (qonun) bir juftlikda, ijtimoiy tartibni va koinot qonunini nazorat qiluvchi kuchlar sifatida tilga olinadi[5], Avestada esa Mitra (Mehr) yorug'lik va qasamyodga sodiqlikni anglatadi.

Zardushtiylikdagi Mitra (*Miθra*) ilohi insonlar o'rtasidagi kelishuv va shartnomalarning homiysi sifatida tasvirlanadi. U adolatli hukm chiqaruvchi, koinotdagi tartib va muvozanatni saqlovchi ilohiy kuch sifatida e'tirof etilgan[3]. Bu tushunchalar ko'chmanchi-chorvador xalqlarning kundalik hayoti va ijtimoiy munosabatlarida muhim ahamiyat kasb etgan. Ayniqsa, qasamyodga sodiqlik, halollik, adolat va sadoqat kabi qadriyatlar chorvador jamoalar orasida ijtimoiy barqarorlikni ta'minlovchi asosiy tamoyillar sifatida qaralgan. Shuningdek, Avesto tili ham muhim tarixiy dalil bo'lib xizmat qiladi. Ushbu asarning tili hozirgi fors tilining ajdodi bo'lmish qadimgi janubi-g'arbiy eroniy tillardan emas, balki shimoli-sharqiy eroniy tillarga mansub bo'lib, aynan O'zbekistonning qadimiy hududlarida amal qilgan tillarga yaqin hisoblanadi. Bu holat Avestoda aks etgan diniy qarashlar, shu jumladan, Mitra kultining shakllanishi va rivojlanishi bevosita Turon zaminidagi qadimiy xalqlar madaniyati bilan chambarchas bog'liq bo'lganini anglatadi[2:277].

Mitra - nafaqat ijtimoiy tartib va axloq timsoli, balki tabiatning barpo etuvchisi sifatida ham muhim o'rin tutadi. Ba'zan u suv xudosi Apam-Napat bilan birgalikda tasvirlanadi, ayrim hollarda esa o'zi mustaqil holda hayotbaxsh kuch egasi sifatida namoyon bo'ladi. Mitra keng yaylovlar ato etuvchi, yer yuzini suv bilan ta'minlovchi xudo bo'lib, uning marhamati ila yomg'ir yog'adi, yaylovlar suvga to'ladi, o'simliklar barq urib o'sadi. U insonlarga hayot, farzand, baxt va tilaklarning ro'yobini in'om etuvchi ilohiy kuch sifatida e'tirof etilgan.

Mitra shuningdek uy-joy, ayollar, aravalar, boylik, salomatlik va nasl qoldirish bilan bog'liq ne'matlarni ato etuvchi xudo sanalgan. U kishilarni ajdodlarga bog'lovchi va oilaviy barqarorlikni mustahkamlovchi kuch sifatida talqin etilgan.

Massagetlar diniy qarashlari jihatidan ham Mitra kultiga yaqin bo'lgan qadriyatlarni o'zida mujassamlashtirgan. Ular yagona buyuk kuch sifatida quyoshni ulug'lashgan va eng chaqqon hayvon - otni quyoshga qurbonlik qilishgan. Bu e'tiqod Mitra obrazining asosiy belgilaridan biri bo'lmish quyosh, yorug'lik va kuch timsoli bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Massagetlar ishonishicha, quyosh - hayot va adolat manbai, unga atab qurbonlik qilinadigan jonliq esa eng tez va kuchli mavjudot bo'lmog'i lozim [2:299].

Bu kabi e'tiqod shakllari Mitra kultining Turon xalqlari orasida chuqur ildiz otganini ko'rsatadi. Mitra - yorug'lik, qasamyod, sadoqat va adolat timsoli bo'lishi bilan birga, ko'chmanchi xalqlar uchun osmon va tabiat bilan bo'lgan ruhiy bog'liqlikni anglatgan. Xususan, chorvador xalqlarning yashash tarzlarida quyosh - kundalik hayot ritmini belgilovchi va mo'l-ko'pchilik manbai sifatida ilohiylashtirilgan.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo ko'chmanchi-chorvador xalqlari madaniyatida Mitra kultining o'zni ayniqsa chorvachilikka oid marosimlar, urf-odatlar va e'tiqodiy qarashlarda yaqqol namoyon bo'lgan. Mitra - quyosh, nur, shartnoma, tartib va baraka ma'budi sifatida - ko'chmanchi xalqlar orasida tabiat va tirikchilik barqarorligini saqlovchi kuch sifatida qadrlangan. Ayniqsa chorvachilik bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bu kult, hayot manbai bo'lgan hayvonlar salomatligi va ko'payishiga qaratilgan marosimlarda muhim ruhiy asos bo'lib xizmat qilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Авесто: Яшт китоби. /М.Исҳоқов таржимаси. – Т.: “Шарқ”, 2011 – 128 б.
2. Асқаров А. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. Монография. – Тошкент: “Фан”, 2023. – 360 б.
3. Boyce M. *Zoroastrians: Their Religious Beliefs and Practices*. — London: Routledge, 2001.
4. Ҳомидов Ҳ. Авестодан Шоҳномага. – Т.: Шарқ, 2007. – Б.63.
5. Macdonell A.A. *Vedic Mythology*. — Delhi: Motilal Banarsidass, 1995.
6. Thieme P., *Mitra and Aryaman*, New Haven, 1957.